

S.A. Baltaboyev

Nizomiy nomidagi TDPU “ Texnologiya vaprofessional ta’lim metodikasi” kafedrası p.f.n.
dotsenti

YOSH AVLODNI MA’NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKILLANTIRISH OMILLARI

Annotasiya: Ushbu maqolada yosh avlod ma’naviyatini kasb-xunar bilan uzviy bog‘lab shakllantirish texnologiyasini ayrim jixatlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Bazaviy o‘quv taminot, ilmiy taminot, hunar umummadaniy taminot, ustoz shogird, kelgusi ta’lim taminotlari.

Annotatsiya: Статья посвящена; содержанию профессиональной подготовки молодежи по организации и поветителству.

Annotation: In this article, some aspects of the formation of the spirituality of the young generation with the profession are highlighted.

Insoniyat tarixidan ma’lumki, rivojlangan davlatlar misolida maxalliy milliy ijodkor kuchlardan samaraliroq, kengroq foydalanilgan joylarda ijtimoiy taraqqiyotga tezroq va asosliroq etib boriladi.

O‘zbekiston mustaqilligi mustahkamlanatgan hozirgi sharoitda milliy o‘yg‘onish jarayonini faollashuvi chog‘ida yosh avlod ta’limi, tarbiyasini takomillashtirish muaommosi-birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Bu sohada ularning tarixga oid birimlarini boyitish, milliy ma’naviy an‘analari va asriy halq qadriyatlarini singdirish muhimligini ta’kidlash lozim.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlanishiga binoan “Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbay-halqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidadir. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an‘analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zamonamizda tinchlik va demokratiya, faravonlik, madaniyat vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir”¹

Yuqorida aytilgan umuminsoniy qadriyatlarga ota-bobolarimiz tomonidan o‘z davrida qurdirilgan maschit va madrasalar, saroylar, maqbaralar va boshqa yodgorliklar ham kiradi. Xozir biz bularni qaraiyb barcha viloyatlarda, shahar, tumonlarda ajoyib go‘shalarda uchratamiz. Ularga biz ikki muhim nuqtai nazardan qarashimiz maqsadga muvofiqdir.

Birinchiidan. Bu yodgorliklar o‘tmishda xalqimizning qanchalik ma’naviyatli, madaniyatli, saxovatli, mehnatkash, imon-e’tiqodli ekanligini ko‘rsatib turibdi. Qadimiy yodg‘orliklar – bu o‘tmishimiz ko‘zgusi, ma’naviyat va madaniyat kuch-qutratining belgisidir.

Shunday ekan, yoshlarning ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni qanday? Ular qanchalik yoshlar ma’naviy dunyoqarashni boyitadi? Ma’lumki, shubhasiz bu masalada ularning o‘rni kattadir. Chunki bunday qadimgi yodgorliklar, birinchiidan, o‘tmish tariximizga bo‘lgan ehtirosni

oshiradi. Ikkinchidan, ota-bobolarimizning me'morchilik san'atiga bo'lgan qiziqishlarini yuksaltiradi. Uchinchidan, bunday tarixiy obidalar o'tmishda ota-bobolarimizning hayot tarzini qanday bo'lganligidan dalolat beradi. Undan tashqari ota-bobolarimiz qo'rgan bu muhtasham binolar hozirgi kungacha o'zining maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan bezaklar, ko'zni qamashtirgudek jilolanib turgan rangli koshinlar, eshiklarga o'yilgan marmar toshlarning o'ymakor naqshlari mamlakatimizni turli shahar va qishloqlarida madaniyatning juda yuksak bo'lganligidan dalolat beradi va kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi.

Shunday ekan, bularga yoshlarimizning munosabatlari qanday? Ular bularning tarixini biladilarmi? Ular bilan olib borilgan suhbatlar savl-javoblardan ma'lum bo'ldiki, ko'pchilik yoshlar bunday obidalarimizning tarixini yaxshi bilmas ekanlar, bunday joylarga tez-tez borib, ma'naviy zavq olib turmas ekanlar. SHundan kelib chiqqan holda biz o'zimiz yashab turgan yurtimizda joylashgan tarixiy obidalarini aniqlashga va ular haqida tegishli ma'lumotlar to'plashga va shular asosida talabalar orasida suhbatlar uyushtirishga, shu erlarga sayohatlar tashkil etishga harakatlar qilishmoqda. Bu borada ta'kidlash lozimki, kasb ta'limi fakultetda taqsim olayotgan talabalar o'rganayotgan mehnat ta'limi praktikumi mazmunida tayangan "ota kasb", "ustoz-shogird" negizida kasbiy ta'lim asoslari bunga dalil bo'ladi.

Buning uchun tegishli adabiyotlar, tarixiy manbalar bilan tanishib chiqdik. SHuningdek viloyatlarning turli tuman, shaharlaridan kelib bizning bilim yurtimizda o'qiyotgan talabalarga o'zlari yashab turgan joylarda qanday tarixiy obidalar borligini va ular qanday ahvolda ekanligini va qachon qurilganligini bilib kelishlarini iltimos qildik. Oradan 3 yil o'tdi. Bu orada anchagina materiallar to'plandi. Oligan materiallarning tahlili shuni ko'rsatdiki, turli viloyatlardan 20 dan ziyot o'z tarixiga ega bo'lgan qadimgi maschitlar, 10 dan rotiq madrasa va maqbaralar, bir nechta ulug' zotlarning dafn etilgan joylari aniqlandi. Umuman olganda, hammasi bo'lib turli viloyatlardan 50 dan ziyot tarixiy obidalar mavjudligi ma'lum bo'ldi. Albatta, bular o'tmishimizning ko'zgusi, noyob yodgorliklaridir. SHunday ekan, shu noyob tarixiy obidalar joylashgan tuman, shahar, qishloqlarni aniqlaganimizdan so'ng bizda ular haqida batafsil bilim, tarixini o'rganish ishtiyoqi yanada kuchaydi. Bu o'rinda biz SHaxrisabz o'lkani o'rganish muzeyi materiallaridan, Respublikamizning taniqli olimlarining asarlaridan foydalandik.

Xo'sh, mana shuncha maschit, madrasa, mavzoley va boshqa obidalar bor ekan yoshlarni ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishida ularning roli qanday degan savol tug'ulishi mumkin. Biz bu ishni shunday boshladik.

Yoshlarni tarixiy obidalarining kelib chiqishi tarixi bilan tanishtirish. Bu o'rinda SHahrisabzdagi tarixiy islom obidasi haqidagi ma'lumotni keltiramiz.

Oq saroyga 1380 yilda asos solingan. Qurilish Temurning Xorazmga to'rtinchi g'olibona yurishi bilan bog'lanadi. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Temur Xorazmni istilo qilgach, ishga yaroqli kishilarni Xorazmdan Movarounnahrqa ko'chirib, Kesh shahriga joylashtirishga farmon beradi. Xorazm ustalari hozir Oq saroy nomi bilan mashhur bo'lgan muhtasham saroini quradilar. Saroy o'zining ulug'vorligi va muhtashamligi bilan zamonadoshlarni hayratga qoldiradi. "Xech kim bunday imoratni hech qachon qurmagan va unga o'xshashini bunyot etmagan", - deb yozgan edi "Zafarnoma" asarining muallifi, tarixchi Nizomiddin Jomiy.

Oq saroy devorlariga qoplangan turli shakldagi koshinlar va sirkor sopollar chinakam mo''jiza, ijodiy yashalgan ajoyib etuklik namunasidir. "Qaft rang" (etti rang)dagi bo'yoqlar – binafsha rang ko'kimtir, zumrad yashil, sutli havorang, zarxol va buyoqlar almashtirib, quyuqlashtirilgan oqish rang, kortardagi ajoyib nuqtalar, O'rta asr gullari, syujetli nashqlar va

gulzor sapollar bitilgan tarixiy va diniy yozuvlar, chechak va yaproqlar tasviridan yashalgan ajoyib bezaklar haytaomizdir.

Muhtasham dargohning “Oq saroy” deb atalishiga sabab uning rang emas, balki go’zalligi va ulug’vorligidir.

Arabiy yozuvlar orasida naqsh bezaklarning bajarilgan vaqti 798 xijriy yil. Saroy 20 yildan ortiq vaqt davomida qurilgan. Ispaniya elchisi Roy ronzalis de Klavixo SHaxrisabzga 1404 yilda kelganida u xali ham bitmagan edi. Zamondoshlarining ta’kidlashlarga qaraganda saroy bir necha hovliga mujassamlangan turar joy va jamoa joylari keng majmuadan iborat bo’lgan. Boburning shohidlik berishiga ko’ra, tantanalar o’tkaziladigan katta gumbazi xona bo’lib, unga davlat kengashi devon majlisi qurdirilgan, uning atrofidagi kichik xonalarda tavojibek va devonbeklarning yig’ilishlari o’tkazilgan. Xovli ravoq bilan o’ralgan u orqali mehmonxona va istiqomat qilinadigan xonalarga kirilgan. Temur SHaxrisabzda 1370-1379 yillarda obodonlashtirish ishlarini boshlagan edi.

Buxoro, Xiva, Afgonichtonda – Xirot shaharlari shu singari shaharlardir. XIV SHaxrisabz devorlarining uzunligi 5 km ni tashkil etgan. SHaharning er maydoni 770x1730 m bo’lgan. Kuchalar kesishgan chorrohada bozor joylashganyu savdo chorroxasi oldidagi diniy kompleks tarkibida bir necha gumbazli maschit Abdushukur og’alik, Malik ajdar, Kunchiqar hamda katta shahar hammomi joylashgan. SHahrisabzni janubdan shimolga kesib o’tadigan kucha Oq saroy ga kelib taqalgan.

Bu o’rinda shuni aytish kerakki, talabalarga tarixiy obidalarni yaratilishi haqida ma’lumot berish orqali ularda ilmiy dunyoqarishni shakllantirish va shu bilan birga ularda islom diniga chuqur hurmat va ehtirom shakllanishiga ham tax’sir etish masalasi alohida ahamiyatga ega. Bunda yoshlarda suhbat va mashg’ulot o’tayotganda ma’lum reja asosida ish olib borish lozim. YOshlar ma’naviy dunyoqarashi darhol shakllanib qolmaydi. Uning uchun muntazam suhbat, savol-javoblar o’tkazish, sayohatlarga olib chiqish kerak. Bularga daslavki mavzular Markaziy Osiyo erlariga islom dinini kirib kelishi va uning shu erlik xalqlar hayotiga ta’sir etgani, islom dinini boshqa dinlarga nisbatan o’ziga xos xususiyati haqidagi ma’lumotlardan boshlash mumkin. Ammo bu erda gap boshqa yo’nalishda boradi.

Umuman, xulosa qilib aytganda, qishloq yoshlarining ham ma’naviy dunyoqarashlarini shakllantirishda o’lkamizdagi, jumladan o’zimiz yashab turgan joylardagi tarixiy obidalar, aytiqsa islom obidalari alohida ahamiyatga ega. Ularning barchasi o’tmishda otabobolarimizning qanchalik boy madaniyati va ma’rifatiga ega ekanliklari, mehnatsevarligini, turmush tarzining qanday ekanligini kursatib turadi. Bularni yoshlarimiz tomonidan chuqur o’rganilishi ularda Vatanparvarlik hissani yuksaltiradi, milliy g’ururini yanada yuksaltirishga katta ta’sir etadi. Bu birinchidan. Ikkinchidan mazkur yo’nalishdagi gapni shu ma’naviyatni shakllantirgan xalq, ularni, bunyod etilgan obidalari, kasblari, mehnatga bo’lgan munosabatlari ham muhim ahamiyatga egadir. Ma’lumki, gap ketayotgan har bir obidani qurishida o’nlab va undan ham kup kasb-xunarli kishilar, o’zlarining bilimlari, ko’nikmalari, malakalarini hamda ijodiy tajribalari bilan antika kasb-kor mutaxassis bo’lib o’tmishda va hozirgacha nafaqat o’z xalqini, vatandoshlarini, chet eldagi turistlarni ham hayratga qoldirganlar va hozir ham hayratda qoldirmoqda. Obidalarda ishlatilgan turli rang-barang konstruksiyali kichik g’itlar, ularga ham o’rniga mos tushadiganni ixtiro etilmaydilar. Obidalarda qo’llanilgan yog’och-o’ymakorlikka xos turli konstruksiyalar, temirdan yasalgan buyumlarchi, sopolli maxsulotlar-chi, gillashlarda mavjud arpamentlar, kashtachilik, zarduzli buyumlar, zargarlar tayyorlagan maxsulotlar va shunga o’xshagan o’nlab, yuzlab hunarmandlar o’z san’ati, kasb-mahorati bilan butun dunyoda o’zbek xalqi, hunarmandlarni tanitdilar.

Chunki ona Vatanni sevish, ardoqlash, uning farovonligini oshirish, ona diyorning har bir qarich erini, tuprog'ini, boylklarini, tabiat va hayovon dunyosini avaylab-asrash, kelgusi avlodlarga qoldirish, ularni muqaddas, tabarruk deb bilish, ajdodlari tarixi, madaniyati bilan g'ururlanish hissini tuyish, milliy urf-odatlar, an'analar, kadriyatlar va udumlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash juda muhim va hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

Ayniqsa O'zbekiston Respublikasining Davlat baylig'i, madhiyasi va gerbiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ya'ni madhiya kuyi jaranglaganda, bayrig'imiz ko'tarilganda gerbimizni ko'rganda qalblarda milliy g'urur tuyg'usi beixtiyor jo'shadi.

Qur'oni Karim suralari va hadis shariflardagi o'g'itlar, huquqiy va ahloqiy normalar bilan tanishtirish ularda keksalarga xurmat, ilmi bo'lish, hamkorlik, dustlik, insonparvarlik, ona Vatanni qadrlash, sahovat, rostgo'ylik, iffat, diyonat, rahm-shavqat, e'tiqod, mehnondo'stlik, mehr-oqibat, tozalik, poklik, vazminlik, xushxulqlilik, kamtarlik, kabi ahloqiy fazilatlarni tarbiyalashga mehnat ta'limi praktikumni ko'p mavzulari kasbiy mazmun negizlari yordam beradi. Xadisu sharifda "Vatanni sevmoq iymondandir" deb bejiz aytilmagan. Vatanni sevish vatanparvar bo'lish demakdir. Inson uchun Vatandan yuksakroq boylk yo'q. Demak Vatan va vatanparvarlik hissini, har bir yosh avlod tarbiyalanuvchi o'smir ham chuqur anglashi, ayniqsa o'zbekistonlik bo'lganidan, shu yurtga daxldorligidan g'ururlanishi va shu zaminga sidqidildan xizmat qilishi, uni himoya qilishga doim tayyor turishi lozim.

SHunday kilib yosh avlod ma'naviyatini kasb-xunar bilan uzbiy bog'lab shakllantirish texnologiyasini ayrim jixatlari yoritildi. Unda o'quvchi-yoshlarni kasb-xunarga yo'naltirilishi ta'lim tarbiya asoslariga tayanib aniq kasb-mutaxassis darajasiga shakllanishi muxim o'rin egallagan. Ularning ma'naviy negizida mehnat qilinishi, mehnatga mexr bilan qaralishlari, unumli va unumsiz mexnatni farq qilishini angay olishi, xususiy va jamiyat mulklarni negizida unumli mehnatning ijtimoiy foydali axamiyatini anglab olishining ma'naviy asoslariga qarab kelajak kasblarini tanlab egallab olishning pedagogik-psixologik izlanishlarni ahamiyati kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 6108-son Farmoni
2. Texnologik ta'lim praktikumi darslik G. M .Anarkulova. G'. Abduqodirov. va boshqalar T 2018yil
3. Bobrysheva I.V. «Gumanitarnaya kompetentnost kak osnova professionalizma i kulturyi sovremennogo uchitelya» Pedagogicheskie nauki 2009g. № 9 str.158
4. Misarenko G. «Na puti k standartam novogo pokoleniya»2008.- №6,-s.3-16.